

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINING MILLIY RIVOJLANISH STRATEGIYALARI KONTEKSTIDA HOZIRGI HOLATI VA IJTIMOIIY-MADANIY TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI

Mardiyeva Malika Abduvaliyevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22045564>

Dolzarbligi.

XXI asrga kelib gender tengligi masalasi O'zbekiston davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik, milliy taraqqiyot strategiyalari va tegishli davlat dasturlari gender siyosatining institutsional asosini sezilarli darajada mustahkamladi. Biroq institutsional-huquqiy islohotlarning jadal sur'atda amalga oshirilishiga qaramay, jamiyat ongida, oila institutida va kundalik ijtimoiy amaliyotlarda saqlanib qolayotgan an'anaviy qarashlar gender tengligiga real erishish jarayonini murakkablashtirmoqda. Ushbu nomutanosiblik — institutsional modernizatsiya bilan ijtimoiy-madaniy transformatsiya sur'atlari o'rtasidagi farq — tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi

— O'zbekistonda gender tengligi siyosatining milliy rivojlanish strategiyalari kontekstidagi hozirgi holatini, uning institutsional mexanizmlari samaradorligini hamda jamiyatning turli ijtimoiy-demografik qatlamlari, xususan yoshlar orasidagi gender qarashlarining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasini sotsiologik tahlil asosida o'rganishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda miqdoriy va sifat usullarining uyg'unlashtirilgan (mixed-method) yondashuvidan foydalanildi. Miqdoriy bosqichda ko'p bosqichli stratifikatsiyalangan tanlash (multistage stratified sampling) usuli asosida shakllantirilgan, jami 1200 nafar respondentni qamragan sotsiologik so'rov o'tkazildi. Tanlanma hududiy (Toshkent shahri, Farg'ona, Samarqand, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati), yosh (18–35 yosh), jins, ta'lim darajasi va yashash joyi mezonlari bo'yicha shakllantirilib, 95% ishonchlilik intervali va $\pm 3-4\%$ xatolik chegarasini ta'minladi. Sifat bosqichida 2024–2025-yillarda 17 ta savoldan iborat yarim strukturaviy chuqurlashtirilgan ekspert intervyulari o'tkazilib, ularga sotsiologiya olimlari, gender masalalari bo'yicha amaliyotchi mutaxassislar, psixologlar, media va NNT vakillari jalb etildi. To'plangan sifat ma'lumotlari NVivo dasturi yordamida tematik kodlash usulida qayta ishlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda birinchi marta O'zbekistonda gender tengligiga erishish jarayoni institutsional-huquqiy va ijtimoiy-madaniy o'lchamlarning uyg'unlashtirilgan tahlili orqali o'rganildi; miqdoriy so'rov va sifat ekspert intervyulari ma'lumotlari integratsiyalashgan holda gender qarashlarining "o'tish holati" konsepsiyasi asosida talqin qilindi; shuningdek 18–35 yoshli avlod gender normalarining eng faol transformator qatlami sifatida empirik jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari.

Tadqiqot doirasida 2020-yildan buyon ishlab turgan “Milliy gender statistika platformasi” faoliyati tahlil qilindi. Ushbu platforma BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridagi (BRM–2030) SDG–5 indikatorlariga muvofiq tuzilgan ko‘rsatkichlarni jamlab, ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy faollik, qaror qabul qilishda ishtirok va zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha ma’lumotlarni jamoatchilikka ochiq taqdim etadi. UNDP hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistondagi gender indikatorlari to‘plami Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng keng qamrovli statistik platformalardan biri sifatida baholanadi.

Sotsiologik so‘rov natijalari gender rollariga oid qarashlarning jamiyatda “o‘tish holati”da ekanini ko‘rsatdi. Xususan, “Erkaklar oilaning asosiy boquvchisi bo‘lishi kerak” degan fikrga respondentlarning o‘rtacha bahosi 5 balllik Likert shkalasida 3,0 ballni, “Ayolning uyda bola tarbiyalashi eng to‘g‘ri modeldir” degan fikrga 2,7 ballni, “Uy yumushlarini asosan ayollar bajarishi kerak” degan fikrga esa 2,3 ballni tashkil etdi — bu ko‘rsatkichlar an‘anaviy gender modelidan zamonaviy, tenglikka asoslangan modelga tomon barqaror siljish tendensiyasini tasdiqlaydi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Respondentlarning gender rollariga oid qarashlari (Likert shkalasi, o‘rtacha ball, N=1200)

Fikr	Mutlaqo qarshi / qarshi	Neytral	Qo‘llab-quvvatlaydi	O‘rtacha ball
“Erkaklar oilaning asosiy boquvchisi bo‘lishi kerak”	39%	27%	34%	3,0
“Ayolning uyda bola tarbiyalashi eng to‘g‘ri modeldir”	47%	28%	25%	2,7
“Uy yumushlarini asosan ayollar bajarishi kerak”	58%	25%	17%	2,3

Respondentlarning 64 foizi oila ichida qarorlar ayol va erkak tomonidan teng ravishda qabul qilinishi lozimligini bildirdi, bu ko‘rsatkich ayniqsa oliy ta’limli va shahar muhitida shakllangan yoshlar orasida yuqori bo‘ldi. Shu bilan birga, respondentlarning 24 foizi bu masalada “vaziyatga qarab farq qiladi” degan moslashuvchan pozitsiyani tanlagani, gender tenglik tushunchasining hali to‘liq konsolidatsiyalanmagan, kontekstual xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ekspert intervyulari tahlili natijasida to‘rtta yetakchi tematik yo‘nalish — “milliy institutsional holat”, “transformatsion ijtimoiy qarashlar”, “media ta’sirining psixologik-kommunikativ omillari” va “to‘siqlar va yechimlar maydoni” — ajratildi. Ekspertlarning umumiy fikriga ko‘ra, O‘zbekiston huquqiy-institutsional yo‘nalishda mintaqada eng jadal modernizatsiya qilayotgan davlatlardan biri bo‘lsa-da, madaniy qarashlar, xususan patriarxal qadriyatlarining barqarorligi tufayli mental o‘zgarishlar institutsional islohotlarga nisbatan sekinroq kechmoqda. Bir ekspert buni quyidagicha ifodalaydi: “O‘zbekiston gender siyosatini huquqiy-institutsional yo‘nalishda mintaqada eng tez modernizatsiya qilayotgan davlatlardan.

Ammo madaniyatda ildiz otgan gender stereotiplari o'zgarishi biroz ortda ketmoqda". Bu holat gender siyosatini amalga oshirishdagi asosiy strategik muammo sifatida baholandi.

Tadqiqot shuningdek 18–35 yoshli avlodni, ayniqsa oliy ta'lim muassasalari talabalarini va yirik shaharlarda istiqomat qiluvchi yoshlarni gender normalari eng tez o'zgarayotgan ijtimoiy qatlam sifatida belgiladi. Bu qatlamda gender tenglik ta'lim, mehnat bozori va boshqaruvda teng imkoniyatlar sifatida tushunilib, huquqiy va ratsional qadriyat darajasiga ko'tarilmoqda. Shahar yoshlari modern va individualistik qarashlarni ko'proq ifoda etgan bo'lsa, qishloq yoshlari orasida an'anaviy gender normalari muayyan darajada saqlanib qolgani kuzatildi — bu esa gender siyosatini amalga oshirishda hududiy tabaqalashtirilgan yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa va tavsiyalar.

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosa va tavsiyalar shakllantirildi:

1. Gender tengligiga erishish jarayonini faqat huquqiy-institutsional islohot sifatida emas, balki keng qamrovli ijtimoiy-madaniy transformatsiya sifatida talqin qilish zarur, chunki institutsional modernizatsiya sur'atlari madaniy o'zgarishlar sur'atidan ilgarilab ketmoqda.

2. Institutsional mexanizmlarning (gender statistika platformasi, Oliy Majlis huzuridagi Komissiya, kvotalar tizimi) samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ta'lim tizimi, OAV va mahalliy jamoatchilik institutlari orqali gender madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ma'rifiy-tarbiyaviy chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim.

3. Yoshlar, xususan 18–35 yosh toifasidagi oliy ta'limli va shahar yoshlari orasidagi ilg'or gender qarashlarini milliy siyosatning uzoq muddatli resursi sifatida institutsional qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy tashabbuslarini rag'batlantirish tavsiya etiladi.

4. Qishloq hududlarida gender siyosatini amalga oshirishda hududiy xususiyatlarni hisobga oluvchi tabaqalashtirilgan yondashuvlarni joriy etish, mahalliy sharoitga moslashtirilgan ma'rifiy dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-103-son qarori.
4. Giddens A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. – Cambridge: Polity Press, 1984.
5. Bourdieu P. Masculine Domination. – Stanford: Stanford University Press, 2001.
6. Inglehart R., Norris P. Rising Tide: Gender Equality and Cultural Change Around the World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
7. Berger P., Luckmann T. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. – New York: Anchor Books, 1966.
8. UNDP. Gender Equality Data and Statistics in Central Asia: Regional Report. – 2024.
9. Mardiyeva M.A. O'zbekistonda XX-XXI asrlarda gender tengligiga erishish jarayonlarining

ijtimoiy-madaniy tendensiyalari: sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2026.

10. UNDP Human Development Report: Gender Inequality Index Methodology. – New York: UNDP, 2023.

11. World Bank. Women, Business and the Law 2024: Uzbekistan Country Profile. – Washington D.C., 2024.

12. Ritzer G. Sociological Theory. 10th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2017.